

GENDER MUNOSABATLARNI OILADAGI MULOQOTGA TA'SIRINING ETNOPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Yusupova Mardona

Angren universiteti Psixologiya
mutaxassisligi magistratura talabasi
mardonayusupova441@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada gender munosabatlarining oilaviy muloqot jarayoniga ko'rsatadigan ta'siri etnopsixologik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Turli milliy va madaniy kontekstlarda erkak va ayol rollari, ularning o'zaro muloqot madaniyati, qaror qabul qilishdagi ishtiroki hamda psixologik moslashuv xususiyatlari yoritilgan. O'zbek oilaviy modelidagi gender rollari, an'anaviy tasavvurlar va zamonaviy tendensiyalar o'rtasidagi ziddiyatlar ham tadqiq etilgan.

Аннотация: В данной статье анализируется влияние гендерных отношений на процессы семейной коммуникации с позиции этнопсихологического подхода. Рассматриваются мужские и женские роли в различных национальных и культурных контекстах, особенности их коммуникативного поведения, участие в процессе принятия решений и психологическая адаптация. Также изучаются гендерные роли в узбекской семейной модели, традиционные представления и противоречия между ними и современными тенденциями.

Abstract: This article analyzes the influence of gender relations on family communication processes through an ethnopsychological approach. It examines male and female roles in various national and cultural contexts, their communication patterns, participation in decision-making, and psychological adaptability. The study also explores gender roles in the Uzbek family model, traditional perceptions, and the contradictions between these traditions and modern trends.

Kalit soʻzlar: Gender munosabatlari, oilaviy muloqot, etnopsixologiya, gender rollari, milliy mentalitet, madaniy kontekst, qaror qabul qilish, patriarxal tuzilma, psixologik moslashuv, kommunikativ xulq, oila dinamikasi, gender tengligi.

Ключевые слова: гендерные отношения, семейная коммуникация, этнопсихология, гендерные роли, национальный менталитет, культурный контекст, принятие решений, патриархальная структура, психологическая адаптация, коммуникативное поведение, семейная динамика, гендерное равенство.

Keywords: gender relations, family communication, ethnopsychology, gender roles, national mentality, cultural context, decision-making, patriarchal structure, psychological adaptation, communicative behavior, family dynamics, gender equality.

Zamonaviy jamiyatda gender munosabatlari ijtimoiy hayotning barcha sohalariga, ayniqsa, oila institutiga bevosita taʼsir koʻrsatadigan muhim psixologik va sotsiologik omil hisoblanadi. Oila – shaxsning ijtimoiylashuvi, qadriyatlar sistemasining shakllanishi va muloqot koʻnikmalarining rivojlanishida asosiy muhit boʻlib, undagi gender rollarining qanday talqin etilishi oilaviy muloqotning sifati va barqarorligiga sezilarli darajada taʼsir qiladi. Shuningdek, turli madaniy va etnik guruhlariga xos boʻlgan psixologik xususiyatlar gender rollarini anglash, ularni bajarish va oʻzaro munosabatlarni qurishda muhim oʻrin tutadi.

Etnopsixologiya nuqtai nazaridan qaralganda, har bir millatning tarixiy tajribasi, anʼanalari, diniy qarashlari va ijtimoiy qadriyatlari oilaviy muloqot modelini shakllantiradi. Oʻzbek jamiyatida ham erkak va ayolga yuklatilgan ijtimoiy rollar koʻp asrlik anʼanalar taʼsirida tarkib topgan boʻlib, ular oilaviy hierarxiya, qaror qabul qilish jarayoni va munosabatlar dinamikasiga taʼsir koʻrsatadi. Biroq globallashuv, modernizatsiya va gender tengligini qoʻllab-quvvatlovchi ijtimoiy islohotlar natijasida ushbu rollar sezilarli oʻzgarishlarga uchramoqda.

Shu nuqtayi nazardan, gender munosabatlarining oiladagi muloqotga ta'sirini etnopsixologik yondashuv orqali o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhimdir. Mazkur maqola turli madaniy kontekstlarda gender rollarining shakllanishi, ularning muloqot jarayonidagi o'rni va O'zbekiston oilalariga xos o'ziga xosliklarni tahlil qilishga qaratilgan.

R. A. Mavlonovanning fikriga ko'ra o'zbek oilasida gender tenglik oiladagi muloqotning samarali va konstruktiv bo'lishiga asos bo'ladi. An'anaviy patriarchal struktura muloqotda ayolning passiv rolini kuchaytiradi, erkakning qaror qabul qilishdagi dominantligi esa ziddiyatlarni kuchaytiradi. Tenglikka asoslangan model esa ota-ona mas'uliyatini muvozanatlaydi va bolalarning psixologik xavfsizligini oshiradi.^[1]

M. Q. Usmonxo'jayeva fikricha o'zbek oilasida muloqotning samaradorligi, gender rollarning an'anaviy va zamonaviy shakllanishi bilan bog'liq. Unga ko'ra, erkak va ayolning teng huquqli va konstruktiv muloqoti oilaviy iqlimni mustahkamlaydi. Patriarxal stereotiplar mavjud bo'lsa, emotsional yaqinlik pasayadi, stress va nizolar ko'payadi.^[2]

D. Q. Qodirova fikriga ko'ra o'zbek oilasida gender stereotiplari muloqotning passiv va ziddiyatli bo'lishiga olib keladi. Stereotiplar yumshaganda, oiladagi qarorlar teng ishtirokda qabul qilinadi va muloqot

¹ Mavlonova, R. A. (2018). *Oilaviy munosabatlarda gender yondashuvning psixologik jihatlari*. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.

² Usmonxo'jayeva, M. Q. (2013). *Oila psixologiyasi*. Toshkent: O'zDJTU.

sifatida konstruktivlashadi. Shu bilan birga, bolalarning psixologik rivojlanishi va ijtimoiy moslashuvi yaxshilanadi.^[3]

Sh. Sharipov O'zbek etnopsixologiyasiga ko'ra, milliy an'analar oiladagi muloqotning strukturaviy xususiyatlarini belgilaydi deb fikrni aytib o'tadi. Masalan, qarorlar ko'proq erkak tomonidan qabul qilinadi, ayol esa muloqotda passiv rol o'ynaydi. Biroq, zamonaviy oila modellari gender tenglikni oshirib, muloqotni ochiq va murosaga asoslangan shaklga olib keladi.^[4]

N. Jo'raeva o'zbek oilasida gender tenglik muloqotning etnopsixologik xususiyatlarini yaxshilaydi. Tenglik mavjud bo'lgan oilalarda qarorlar hamkorlik asosida qabul qilinadi, emotsional yaqinlik kuchayadi, konfliktlar kamayadi va bolalar psixologik xavfsizlikka ega bo'ladi.^[5]

Fine biologik jinsiy farqlar va ularning ruhiy jihatdan "tabiiy" ekanligi to'g'risidagi stereotiplarni tanqid qiladi. U "neyroseksizm" tushunchasini kiritib, jamiyat erkak va ayol ongida farq borligini biologik jihatdan tasdiqlasa-da, aslida bu farqlar ko'pincha madaniy va ijtimoiy stereotiplar natijasidir.^[6]

Fine'ning yondoshuvi gender tenglikni psixologik va ijtimoiy konstrukt sifatida ko'rib chiqishda muhimdir. Uning fikrlari asosida gender rollari va psixologik farqlarning "tabiiy emas, balki ijtimoiy qurilganligi" nuqtayi nazari ilmiy jihatdan maqolada asoslandi.

A.G.Johnson patriarxal tuzilmaning jamiyatga chuqur o'rnatilganligini ta'kidlaydi va u nafaqat ayollarga, balki erkaklarga ham zarar yetkazishini ko'rsatadi. U "patriarxiya daraxti" (Tree of Patriarchy) konsepsiyasidan foydalangan holda gender tengsizlikni saqlab turuvchi ijtimoiy institutlar, me'yorlar va shaxsiy munosabatlarni

³ Qodirova, D. Q. (2020). *Gender stereotiplari va oilaviy konfliktlar psixologiyasi*. Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti.

⁴ Sharipov, Sh. (2017). *Oila sotsiologiyasi*. Toshkent: Universitet.

⁵ Jo'raeva, N. (2019). *Bola psixologiyasi va oilaviy munosabatlar*. Toshkent: TDPU.

⁶ Cordelia Fine Delusions of Gender: How Our Minds, Society and 2010.

tushuntiradi. Johnsonning fikricha, tenglik yo'lida kurashish "eng oson yo'l emas, balki eng to'g'ri yo'l"dir.^[7]

Johnsonning nazariy yondashuvi gender tenglikni faqat individual darajada emas, balki ijtimoiy-psixologik struktura (oilaviy va jamiyat darajasida) sifatida tushunishda mustahkam ilmiy asos beradi. U oiladagi rollar, ijtimoiy me'yorlar va ularning barqarorlik hamda konfliktlarga qanday ta'sir qilishini o'rganishga yordam beradi.

Qodirova o'zbek oilaviy psixologiyasi va gender yondashuvlarini tadqiq qilib, gender tengligi va oilaviy muloqotning sifati o'rtasidagi bog'liqlikni amaliy jihatdan ko'rsatadi. Tadqiqot shuni namoyon qiladi-ki, gender tengligi yuqori bo'lgan oilalarda qarorlar birgalikda qabul qilinadi, hissiy qo'llab-quvvatlash kuchli, konfliktlar esa konstruktiv tarzda hal qilinadi.

Qodirova'ning tadqiqoti O'zbekiston kontekstida gender munosabatlarining oilaviy muloqot sifatiga ta'sirini empirik jihatdan tasdiqlaydi. Bu maqolaga milliy va etnopsixologik xususiyatlarni tahlil qilish uchun mustahkam ilmiy asos beradi.

O'zbek va xorijiy olimlar fikriga ko'ra gender munosabatlarning oiladagi muloqotga ta'siri

⁷ Allan G. Johnson The Gender Knot: Unraveling Our Patriarchal Legacy 1997

Olim	Asosiy g'oya	Oiladagi muloqotga ta'siri	Barqarorlik va konfliktlar
R. A. Mavlonova (2018)	Gender tenglik oiladagi muloqotning samarali va konstruktiv bo'lishiga asos bo'ladi	Ota-ona mas'uliyati muvozanatlashadi, emotsional yaqinlik oshadi	Konfliktlar kamayadi, bolalar psixologik xavfsizligi oshadi
M. Q. Usmonxo'jayeva (2013)	Gender rollar an'anaviy va zamonaviy shakllanishi bilan bog'liq	Teng huquqli muloqot oila iqlimini mustahkamlaydi	Patriarxal stereotiplar mavjud bo'lsa, nizolar ko'payadi
D. Q. Qodirova (2020)	Gender stereotiplari muloqotning passiv va ziddiyatli bo'lishiga olib keladi	Qarorlar teng ishtirokda qabul qilinadi, muloqot konstruktivlashadi	Konfliktlar kamayadi, bolalarning ijtimoiy moslashuvi yaxshilanadi

Sh. Sharipov (2017)	Milliy an'analar muloqotning strukturaviy xususiyatlarini belgilaydi	Zamonaviy oilalar modellari muloqotni ochiq va murosaga asoslangan qiladi	Qaror qabul qilish demokratiklashadi, yaqinlik ortadi
N. Jo'raeva (2019)	Gender tenglik muloqotning etnopsixologik xususiyatlarini yaxshilaydi	Qarorlar hamkorlikda qabul qilinadi, emotsional yaqinlik kuchayadi	Konfliktlar kamayadi, bolalar psixologik xavfsizligi oshadi
C. Fine (2010)	Gender farqlar tabiiy emas, ijtimoiy stereotiplar natijasidir	Rollar va qarorlar ijtimoiy konstruksiya asoslanadi	Muloqot konstruktivlashadi, stereotiplar yumshaydi
A. G. Johnson (1997)	Patriarxal tuzilma gender tengsizlikni saqlab turadi	Tenglik yo'lida kurashish oilada adolat va konstruktivlikni oshiradi	Konfliktlar kamayadi, oilaviy barqarorlik ortadi

Allan G. Johnson (1997) patriarxal tizimni oilaviy va jamiyat darajasida erkak ustunligini saqlab turuvchi ijtimoiy struktura sifatida tushuntiradi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, patriarxal oilalarda muloqot ochiqligi past, qarorlar bir tomonlama qabul

qilinadi va nizolar ko‘p uchraydi. Johnsonning *“patriarxiya daraxti”* kontseptsiyasi bu jarayonlarni tushuntirishda asosiy ilmiy poydevor bo‘ldi (Johnson, 1997).

Gender rollari va ijtimoiy konstruktlar

Cordelia Fine (2010) biologik farqlardan kelib chiqib oilaviy xulqni belgilashga qarshi chiqadi va gender farqlarini ijtimoiy konstrukt sifatida ko‘radi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy oilalarda rollar adolatli taqsimlangan bo‘lsa, sheriklar o‘z fikrini erkin ifodalaydi, muloqot konstruktiv bo‘ladi va nizolar muzokara orqali hal qilinadi. Bu Fine’ning *“gender farqlari ijtimoiy va madaniy stereotiplardan shakllanadi”* degan nazariyasi bilan mos keladi (Fine, 2010).

O‘zbek oilalaridagi gender ziddiyatlari

Qodirova (2019)ning tadqiqotlariga ko‘ra, an’anaviy va zamonaviy gender rollari o‘rtasidagi ziddiyatlar oilaviy muloqot sifatiga bevosita ta’sir qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, an’anaviy oilalarda erkak ustunligi va ayolning uy roli kuchli bo‘lsa, muloqot ochiq past, qarorlar bir tomonlama qabul qilinadi va konfliktlar ko‘p uchraydi. Zamonaviy oilalarda esa rollar adolatli taqsimlangan, muloqot ochiq va konstruktiv bo‘lib, psixologik moslashuv yuqori darajada kuzatiladi (Qodirova, 2019). Natijalar shuni ko‘rsatadiki, gender tenglik oiladagi muloqot sifatini oshiradi, psixologik farovonlikni mustahkamlaydi va konfliktlarni kamaytiradi. Patriarxal yoki gender nomutanosibligi mavjud oilalarda esa muloqot qiyinlashadi, nizolar ko‘payadi va psixologik stress oshadi. Shu bilan birga, milliy va madaniy kontekst oiladagi gender munosabatlarining shakllanishiga muhim rol o‘ynaydi

Ushbu tadqiqot natijalari gender munosabatlarining oilaviy muloqot jarayoniga ta’siri ko‘p qirrali va murakkab ekanligini ko‘rsatdi. Olingan ma’lumotlar Allan G. Johnson (1997) va Cordelia Fine (2010) nazariy g‘oyalari bilan uyg‘un keladi, shuningdek, Qodirova (2019) tomonidan qayd etilgan milliy-etnopsixologik kontekstni tasdiqlaydi.

Birinchidan, patriarxal oilalarda muloqot ierarxik va bir tomonlama bo‘lib, qarorlar ko‘pincha erkak tomonidan qabul qilinadi. Bu Johnsonning *“patriarxiya daraxti”* kontseptsiyasiga mos keladi, u patriarxal tizim oiladagi kuch tengsizligini va gender nomutanosibligini saqlab turishini ta’kidlaydi (Johnson, 1997). Tadqiqotimiz shuni ko‘rsatdiki, bunday oilalarda konfliktlar ko‘p, muloqot ochiqligi past va psixologik stress yuqori.

Ikkinchidan, gender rollari adolatli taqsimlangan oilalarda muloqot konstruktiv va sheriklar fikrini erkin ifodalay oladi. Bu Fine’ning nazariy yondashuvi bilan mos keladi: gender farqlari biologik emas, ijtimoiy va madaniy stereotiplardan shakllanadi, shuning uchun rollar adolatli taqsimlanganda oilaviy muloqot sifati oshadi (Fine, 2010). Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy O‘zbek oilalarida rollarning moslashuvchanligi, qarorlarni birgalikda qabul qilish va konstruktiv muloqot psixologik moslashuvni kuchaytiradi.

Uchinchidan, milliy va madaniy kontekst ham oilaviy muloqotga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Qodirova (2019)ning tadqiqotlariga muvofiq, an’anaviy qadriyatlar va zamonaviy gender tendensiyalari o‘rtasidagi ziddiyatlar muloqot sifatini pasaytiradi, qarorlar bir tomonlama qabul qilinadi va konfliktlar ko‘payadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, an’anaviy stereotiplar kuchli bo‘lgan oilalarda psixologik stress yuqori, konstruktiv muloqot esa cheklangan.

Shuningdek, tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, gender tenglik farzandlar tarbiyasida ijobiy rol o‘ynaydi. Tenglik asosida tashkil etilgan oilalarda bolalar adolat, hurmat va empatiyani yaxshi o‘zlashtiradi, agresiv xulq kamroq uchraydi, bu esa oilaviy muloqot va psixologik muhitning sog‘lomligini ta’minlaydi (Fine, 2010; Qodirova, 2019).

Umuman olganda, tadqiqot shuni tasdiqlaydi: gender tenglik nafaqat oila ichidagi muloqot sifatini yaxshilaydi, balki psixologik moslashuv, konfliktlarni konstruktiv hal qilish va oilaviy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Patriarxal va an’anaviy strukturalar esa buning aksini yaratib, konfliktlar va stress xavfini oshiradi. Bu natijalar

olimlarning nazariy qarashlarini amalda tasdiqlaydi va etnopsixologik kontekstda gender munosabatlarining ahamiyatini ko'rsatadi.

Ushbu tadqiqot gender munosabatlarining oilaviy muloqotga ta'sirini etnopsixologik nuqtai nazardan o'rganib, quyidagi asosiy xulosalarni berdi:

Patriarxal struktura va gender nomutanosibligi oiladagi muloqot sifatini pasaytiradi, qarorlar bir tomonlama qabul qilinadi, konfliktlar ko'p va psixologik stress yuqori bo'ladi. Bu Allan G. Johnson (1997) nazariyasi bilan mos keladi.

Gender rollarining adolatli taqsimlanishi oilada konstruktiv muloqot, sheriklar orasida o'zaro hurmat va fikr almashish imkonini oshiradi, nizolar muzokara orqali hal qilinadi. Bu Cordelia Fine (2010)ning gender farqlari ijtimoiy konstrukt ekanligi haqidagi nazariyasi bilan tasdiqlanadi.

Milliy-etnopsixologik kontekst muhim rol o'ynaydi. O'zbek oilalarida an'anaviy qadriyatlar va zamonaviy gender tendensiyalari o'rtasidagi ziddiyatlar muloqot sifatini pasaytiradi va psixologik stressni oshiradi, zamonaviy yondashuvlar esa konstruktiv muloqot va psixologik moslashuvni kuchaytiradi

Farzandlar tarbiyasiga ta'siri: Gender tenglik mavjud oilalarda bolalar adolat, hurmat va empatiyani yaxshi o'zlashtiradi, bu esa sog'lom psixologik va ijtimoiy rivojlanishni ta'minlaydi.

Gender tenglik oilada muloqot sifatini oshiruvchi, psixologik moslashuv va konstruktiv qaror qabul qilishni rag'batlantiruvchi asosiy ijtimoiy-psixologik omil sifatida namoyon bo'ladi. Patriarxal va an'anaviy gender nomutanosibligi esa konfliktlar, stress va muloqotdagi qiyinchiliklarni kuchaytiradi.

Shu bilan, tadqiqot natijalari gender yondashuvni oilaviy siyosat, psixologik maslahat, ta'lim va ijtimoiy dasturlarga integratsiya qilishning ahamiyatini ilmiy

jihatdan tasdiqlaydi. Gender tenglikni rivojlantirish nafaqat adolatni ta'minlaydi, balki oilaviy barqarorlik va psixologik farovonlikni mustahkamlaydi.

Adabiyotlar ro'yxati

Fine, C. (2010). *Delusions of gender: How our minds, society and neurisexism create difference*. New York, NY: W. W. Norton & Company.

Johnson, A. G. (1997). *The gender knot: Unraveling our patriarchal legacy*. Philadelphia, PA: Temple University Press.

Qodirova, S. *Etnopsixologik kontekstda o'zbek oilasidagi gender rollari*. 2019.

Jo'raeva, N. (2019). *Bola psixologiyasi va oilaviy munosabatlar*. Toshkent: TDPU.

Mavlonova, R. A. (2018). *Oilaviy munosabatlarda gender yondashuvning psixologik jihatlari*. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.

Qodirova, D. Q. (2020). *Gender stereotiplari va oilaviy konfliktlar psixologiyasi*. Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti.

Sharipov, Sh. (2017). *Oila sotsiologiyasi*. Toshkent: Universitet.

Usmonxo'jayeva, M. Q. (2013). *Oila psixologiyasi*. Toshkent: O'zDJTU.